



## O'ZBEKISTONDA OLIY TA'LIM MUASSASALARINI SUBSIDIALASH AMALIYOTI: UNIVERSITETLARNI VA TALABALARNI SUBSIDIALASHNING ASOSIY XUSUSIYATLARI

*PhD Valiyev Shamsiddin Eshpulatovich*

*Raqamli iqtisodiyot va agrotexnologiyalar universiteti*

*ORCID: 0009-0000-9698-4320*

[sh.valiyev@udea.uz](mailto:sh.valiyev@udea.uz)

*DSc, dots. Xolmuminov Shuxrat Shayzakovich*

*Raqamli iqtisodiyot va agrotexnologiyalar universiteti*

*ORCID: 0000-0003-4967-2206*

[sh.xolmuminov@udea.uz](mailto:sh.xolmuminov@udea.uz)

**Annotatsiya.** Davlat moliyasida oliy ta'lim muassasalarini subsidiyalash jarayoni yo'nalishlari universitetlar va talabalarga nisbatan qanday shaklda tashkil etilishi ko'pgina tadqiqotlar asosida o'rganilgan. Ushbu tadqiqotda mamlakatimizda oliy ta'limni subsidiyalashni tashkil etishda so'nggi yillarda OTMLar va talabalarga nisbatan asosiy tendensiyalar tahlil qilingan. Subsidiyalashning asosiy yo'nalishlari xususiyatlari va jihatlari borasidagi o'zgarishlar borasida xulosalar olingan hamda takliflar shakllantirilgan.

**Kalit so'zlar:** oliy ta'lim muassasalari, OTMLarni subsidiyalash, oliy ta'limga sarflar, davlat byudjeti xarajatlari, ta'lim kreditini moliyalashtirish jamg'armasi.

## ПРАКТИКА СУБСИДИРОВАНИЯ ВЫСШИХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ: ОСНОВНЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ СУБСИДИРОВАНИЯ УНИВЕРСИТЕТОВ И СТУДЕНТОВ

*PhD Валиев Шамсиддин Эшпулатович*

*Университет цифровой экономики и агротехнологий*

*DSc, доц. Холмуминов Шухрат Шайзакович*

*Университет цифровой экономики и агротехнологий*

**Аннотация.** Пути процесса субсидирования вузов в рамках государственных финансов в отношении вузов и студентов изучены на основе многих исследований. В данном исследовании проанализированы основные тенденции в организации субсидирования высшего образования в нашей стране за последние годы в отношении вузов и студентов. На основе анализов и изучений сделаны выводы и предложения по изменению особенностей и аспектов основных направлений субсидирования.

**Ключевые слова:** высшие образовательные учреждения, субсидирование вузов, затраты на высшее образование, расходы государственного бюджета, фонд финансирования образовательных кредитов.

## PRACTICE OF SUBSIDIZING HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS IN UZBEKISTAN: MAIN CHARACTERISTICS OF SUBSIDIZING UNIVERSITIES AND STUDENTS

*PhD Valiev Shamsiddin Eshpulatovich*

*University of Digital Economics and Agrotechnologies*

*DSc, assoc. prof. Kholmuminov Shukhrat Shayzakovich*

*University of Digital Economics and Agrotechnologies*

**Abstract.** *The ways of the process of subsidizing universities within the framework of state finances in direction to universities and students have been studied on the basis of many studies. This article analyzes the main trends in the organization of subsidizing higher education in Uzbekistan, in recent years in the direction to universities and students. Based on the analyses and studies, conclusions and proposals were made to change the features and aspects of the main areas of subsidization.*

**Keywords:** *higher education institutions, subsidizing higher education institutions, higher education costs, state budget expenditures, educational loan financing fund.*

### **Kirish.**

Oliy ta'lim tizimini moliyalashtirishda davlat moliyaviy resurslarini ajratish, ularni taqsimlash va manzilli moliyalashtirilishini tashkil etish deyarli barcha mamlakatlarda davlat moliyasining eng muhim masalalaridan biri hisoblanadi. Shu maqsadda oliy ta'lim sohasiga sarflangan moliyaviy resurslarning samaradorligi, natijadorligi va mutanosibligini ta'minlash masalasi davlatning ijtimoiy sohalarni moliyalashtirilishini tashkil etishida asosiy yo'nalishlardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

O'zbekistonda ham so'nggi 6-7 yilda oliy ta'lim bilan qamrov darajasi keskin o'sishi kuzatildi. Oliy ta'limning qisqa, cheklangan qamrov darajasi o'rniga ommaviylashuv va yuqori qamrov ko'rsatkichlari davri kirib keldi. Ushbu o'zgarishlar natijasida oliy ta'lim tizimining "moliyaviy landshafti" ham tubdan o'zgarishi yuz bermoqda. Xususan, davlat oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish, ularning o'zini-o'zi moliyalashtirishiga zamin yaratish, OTMLar boshqaruviga korporativ boshqaruv qoidalarini joriy etish, tarmoqda xususiy oliy ta'lim tashkilotlari ulushining keskin oshishi, mutaxassislar tayyorlashda davlat buyurtmalari va grantlari taqsimoti institutini nodavlat va xorijiy oliy ta'lim muassasalari uchun ham kiritish kabi bir qancha o'zgarishlarni misol qilib keltirish mumkin. Qayd etilgan islohotlar natijasida oliy ta'limga sarflangan davlat budjeti mablag'lari tarkibida ham tub o'zgarishlar yuz berayotganligi kuzatilmoqda. Moliyalashtirish shakllari, usullari va tartiblarida tarkibiy o'zgarishlar joriy etish orqali moliyalashtirishning xalqaro, zamonaviy va tan olingan samarali tizimlariga o'tish borasida chora-tadbirlar ko'rilmoqda.

Ushbu tadqiqot ishida yuqorida qayd etilgan qarashlar hamda tizimli o'zgarishlarga asoslanib, OTMLarni subsidiyalashning bevosita va bilvosita usullarining ilmiy asoslarini sharhlash va ular asosida mamlakatimizda oliy ta'lim sohasini moliyalashtirish holatini tahlil qilish ko'zda tutilgan. Tadqiqotning adabiyotlar tahlili qismida OTMLarni subsidiyalashda olib borilgan tadqiqotlar sharhlash ko'zda tutiladi va tadqiqotlarda urg'u berilishi lozim bo'lgan yo'nalishlarni belgilab olish nazarda tutiladi. Tadqiqot tahlillarini olib borish va tizimlashtirish hamda xulosalarni umumlashtirish maqsadida tadqiqotning metodologiyasi ishlab chiqilishi ham ko'zda tutiladi. Tahlil va natijalar muhokamasida ishlab chiqilgan metodologiya asosida OTMLarni subsidiyalashning nazariy, tashkiliy-huquqiy va amaliy jihatlarini atroflicha tahlil qilish rejalashtirilgan. Tadqiqot yakunida tahlillar va natijalar muhokamasi asosida xulosalar qilish va takliflar shakllantirish maqsad qilingan.

### Adabiyotlar sharhi.

Butun dunyoda oliy ta'limni subsidiyalash darajasi davlatlar xususiyatlaridan kelib chiqqan holda OTMLar budjetining sezilarli qismini tashkil etadi. Xususan, Skandinaviya davlatlarida subsidiyalar hajmi 90 foizdan ortiqni tashkil etsa, Buyuk Britaniya va AQSh kabi davlatlarda ushbu ko'rsatkich 30 foizga ham etmaydi (Winter va Pfitzner, 2013). Umumiy qilib aytganda deyarli barcha mamlakatlarda ta'lim jumladan, oliy ta'lim xarajatlari davlat moliyasi asosida tashkil etilishi amal qiladi (Tilak,2004). Masalaning konseptual jihati shundan iboratki, davlat moliyasi orqali ajratilayotgan moliyaviy resurslar qaysi tartib yoki shaklda amalga oshirilishi samaraliroq ekanligi ko'pgina tadqiqotlarning obyekti bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Tadqiqotlarda davlat tomonidan moliyaviy resurslarni transfer qilish mexanizmlari quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirish amaliyotda ko'p uchraydi va aynan ularni takomillashtirish kun tartibida turadi (Albrext va Ziderman,1992):

a) Davlat tomonidan oliy ta'lim muassasalariga maxsus organlar ko'magida (buffer organizations) subsidiyalar ajratish mexanizmi;

b) Davlat tomonidan talabalarga vaucherlar yoki moliyaviy qarz (ta'lim kreditini orqali qo'llab-quvvatlash) ajratish orqali moliyalashtirish mexanizmi.


Oliy ta'lim muassasalarini subsidiyalashda davlat organlarining OTMLarga bevosita moliyaviy resurslar ajratishi so'ngi yillarda nisbatan cheklanishi va moliyalashtirishning innovatsion usullariga murojaat qilinmoqda (Salmi,2010). Subsidiyalashning talabalar orqali taqsimlash amaliyoti ko'pgina rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda ommalashganligi tadqiqotlarda sharhlangan (Belyakov, 2005). Shuningdek, aksariyat tadqiqotlarda subsidiyalashni talabalar orqali amalga oshirishda qaysi mezonlar va tartiblarni qo'llash samaraliroqligi borasida ham izlanishlar olib borilgan (Jonston va Markuchi, 2010). Davlat moliyasi orqali oliy ta'lim sohasini moliyalashtirishda asosiy trendlar borasida natijaga yo'naltirilgan moliyalashtirish mexanizmlariga (performance-based financing) urg'u berilayotganligi ham tadqiqotlarda ko'rib chiqilgan (Hauptman, 2007).

Tadqiqotlarda yana bir e'tibor berilgan jihat bu oliy ta'limni subsidiyalashning fiskal samarasi (ijobiy ta'sirlari) orqali tushuntirilishi bilan bog'langan ilmiy xulosalardir (Deklerk va Ervin,2020). Unga ko'ra oliy ma'lumotli mutaxassislarining kelajakda daromadlari oshishi hisobiga (qabul va muvaffaqiyatli tugallash ko'rsatkichlarining o'sishi hisobiga) budjetga soliq tushumlari oshadi va bugungi ajratilayotgan subsidiyalar o'zini oqlashi ta'minlanishi tushuntiriladi. Ammo ushbu fiskal ijobiy ta'sirlar xilma-xil shakllanganligi tufayli ilmiy xulosalar nisbiy ahamiyatga ega (Deklerk va Ervin,2020).

Fikrimizcha, tadqiqotlarda oliy ta'lim xizmatlarining O'zbekistondagi so'ngi oliy ta'lim islohotlarini hisobga olgan holda boyitilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

### Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot ishida dastaval oliy ta'lim xizmatlarini davlat moliyasi orqali tashkil etish va OTMLarni subsidiyalash amaliyoti va subsidiyalashning tashkiliy-huquqiy jihatlarini atroflicha tahlil qilinadi. Tadqiqotda olib boriladigan tahlillar va ilmiy-nazariy yondashuvlar mantiqiy hamda uzviy bo'liqlikda o'rganiladi va ular asosida yakuniy xulosalar olinadi. Tadqiqot yakunida olingan xulosalar asosida tegishli takliflar shakllantiriladi (1-rasm).



**1-rasm. Oliy ta'lim muassasalarini subsidiyalashga tegishli tadqiqot ishining taxminiy bosqichlari**


*Manba:* muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Tadqiqot ishida monografik tahlil, nazariy va empirik tahlil, statistik kuzatuv, sintez, induktiv va deduktiv tahlil orqali yondashuv va qiyoslash usullaridan foydalanilgan.

Statistik ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi Ijtimoiy sohalar iqtisodiyoti va moliyasi departamenti va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi rasmiy saytidan olingan. Tashkiliy-huquqiy va normativ baza sifatida O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari Milliy bazasidan foydalanilgan.

### Tahlil va natijalar muhokamasi.

*OTMlarni subsidiyalashning tashkiliy-huquqiy jihatlari.* Ta'lim sohasi moliyasini tashkil etishning huquqiy asosi eng avvalo mamlakatimizning asosiy qomusi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bilan belgilanadi. Konstitutsiyaning 50-moddasiga ko'ra: "Davlat uzluksiz ta'lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari rivojlanishini ta'minlaydi" – deb belgilab qo'yilgan. Shuningdek, aynan ushbu moddaga asosan: "Davlat bepul umumiy o'rta ta'lim va boshlang'ich professional ta'lim olishni kafolatlaydi" – deb qayd qilib qo'yilgan.




**2-rasm. O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni davlat moliyasi orqali amalga oshirish tashkiliy tuzilmasi**

*Manba:* muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Asosiy qomusimizning 51-moddasiga ko'ra: "Fuqarolar davlat ta'lim tashkilotlarida tanlov asosida davlat hisobidan oliy ma'lumot olishga haqli" ekanligi belgilab qo'yilgan. Ushbu normalarga asosan mamlakatimizda ta'lim, xususan oliy ta'limning moliyasi tashkil etiladi. Bundan tashqari mamlakatimizda ta'lim sohasi uchun asosiy qonun hisoblangan "Ta'lim to'g'risida"gi qonun asosida ham oliy ta'lim sohasini moliyalashtirishga doir asosiy normalar belgilab qo'yilgan. Ushbu qonunning 9-bobida ta'limni moliyalashtirish va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash masalalariga oid huquqiy normalar belgilab berilgan. Jumladan, qonunning 62-moddasi birinchi xatboshisiga asosan: "Davlat ta'lim muassasalarini moliyalashtirish O'zbekiston Respublikasining respublika budjetidan, Qoraqalpog'iston Respublikasi budjetidan, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlaridan, tumanlar va shaharlar budjetlaridan, kadrlar buyurtmachilarining mablag'lari hisobidan, shuningdek budjetdan tashqari mablag'lar hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga

oshiriladi.” – deb belgilangan bo‘lib, ushbu normaga asosan oliy ta‘lim muassasalarini moliyalashtirish tashkil etiladi.



3-rasm. OTMlarni turli manbalar hisobidan moliyalashtirish tizimining taxminiy sxemasi (Татарникова, 2006)

Mamlakatimizda oliy ta‘lim muassasalarini moliyalashtirishni tashkil etishda ushbu tizimga tegishli qonun va qonunosti hujjatlarini qabul qilish, ularning ijrosini nazorat qilish borasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisi, Prezident administratsiyasi, Hisob palatasi kabi organlarning o‘z vakolatlari doirasida belgilangan funksiya va vazifalari mavjuddir. Moliyalashtirishni tashkil etish, ijro va monitoring hamda hisobdorlik nuqtai nazaridan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligining o‘z vakolatlari hamda vazifalari belgilangan. Tarmoq davlat organi (lari) sifatida O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda tasarrufida OTMlar mavjud davlat vazirlik va idoralari ham moliyalashtirishni tashkil etishda asosiy tashkiliy tuzilmalar sifatida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, subsidiyalanadigan ta‘lim kreditlarini ajratish va moliyalashtirishda tijorat banklarining ham qonunchilik asosida belgilangan vazifa va vakolatlari mavjuddir. Ular talabalar va ularning kafillari tomonidan shartnoma to‘lovlarini ta‘lim kreditlari asosida moliyalashtirish hamda



davlat subsidiyalanadigan foizli sarflari borasida O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi hamda OTMLar o'rtasidagi asosiy oraliq (buffer) tashkilot sifatida namoyon bo'ladi. Albatta OTMLar ushbu tuzilmada (3-rasm) so'ngi benefitsiar tashkilot sifatida ishtirok etadi. OTMLarning bu boradagi faoliyati esa budjet qonunchiligi va qonunosti aktlari bilan tartibga solinadi.

Oliy ta'lim olish istagidagi shaxs, o'rnatilgan tartibda belgilangan tanlovlardan o'tganidan so'ng ma'lum mezonlar asosida davlat kadrlar tayyorlash dasturining maqsadli parametrlari doirasida OTMLar va tegishli vazirlik idoralar bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishadi. O'rnatilgan shart va majburiyatlar doirasida maqsadli ko'rsatkichlarga asosan oliy ta'lim olgan shaxs muddatli ishlab berish majburiyatlarini bajarishi yoxud subsidiyalarni qoplash shartlarini amalga oshirishi talab etiladi. Mamlakatimizda Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan ushbu davlat grantlari orqali moliyalashtiriladigan yo'nalishlardan tashqari maqsadsiz, ma'lum bir ijtimoiy reestrlar asosida belgilanuvchi mezonlar asosida ham subsidiyalash amalga oshirilishi mumkin. Ijtimoiy mezonlar asosida subsidiyalash belgilangan tartiblar bo'yicha ijro etiladi va nazorat amalga oshiriladi. Umumiy ma'noda subsidiyalash hajmlari maqsadli va maqsadsiz shakllarda davlat budjeti parametrlarida o'z aksini topadi.

Davlat moliyasi orqali oliy ta'limni moliyalashtirishning yana bir asosiy yo'nalishlaridan biri bu ta'lim kreditlari dasturlari orqali amalga oshiriluvchi mexanizm deb aytish mumkin. Ushbu yo'nalishda maxsus fondlar tashkil etish orqali hamda kapital bozorlaridagi foiz stavkalari va ta'lim krediti stavkalari orasidagi tafovvutlarni subsidiyalash orqali moliyalashtirish tashkil etilishi nazarda tutiladi. 4-rasmga ko'ra OTMLarni turli manbalar hisobidan moliyalashtirish tizimining taxminiy sxemasini tasavvur qilish mumkin. Umuman olganda moliyalashtirishning deyarli ko'pgina bo'g'inlari va yo'nalishlarida davlat moliyasining bevosita yoxud bilvosita ishtirokini ko'rish mumkin. Bunda oliy ta'lim olish istagida bo'lgan shaxsning tanlovlar hamda shartnomaviy munosabatlar asosida mehnat bozorida faoliyatini boshlagungacha bo'lgan bosqichlarda davlat va markazlashgan, shuningdek markazlashmagan moliyalashtirish tizimlarining o'zaro ketma-ketligini hisobga olgan holda jarayonlarni tashkil etish nazarda tutilishi kerak.

## 2-jadval

## 2020-2025-yillarda davlat budjetidan ta'limga xarajatlar to'g'risida ma'lumot


Ko'rsatkichlar	2020	2021	2022	2023	2024 (kutilma)	2025 (reja)
Yalpi ichki mahsulot (mlrd. so'm)	668038	820537	995573	1192163	1301759	1630000
Davlat budjeti xarajatlari, jami (mlrd. so'm)	144143	188257	236692	281097	312921	344600
Ijtimoiy xarajatlar (mlrd. so'm)	74232	92014	117692	137247	151504	178200
Ta'limga xarajatlar (mlrd. so'm)	29961	39641	50271	61220	69076	84000
Kadrlar tayyorlashga sarflar (mlrd. so'm)	3205	4408	6981	9815	12675	14545
Oliy ta'limga sarflar (mlrd. so'm)	1969	2736	4849	4525	6047	6683.6
Davlat OTMLarida talabalar soni (ming nafar)	551	851	1014	1054	1068	1093

**Manba:** O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy saytlari ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

OTMLarni subsidiyalash amaliyoti tahlili. Mamlakatimizda ijtimoiy soha moliyasi davlat budjeti xarajatlarida eng asosiy o'rinni egallaydi. Davlat budjetining 50% ga yaqini aynan

ijtimoiy sohalarni moliyalashtirishga yo'naltiriladi. Davlatning ijtimoiy sohadagi maqsad va vazifalarini to'laqonli ijro etishi hamda ijtimoiy sohaga tizimli investitsiyalar yo'naltirilishini ta'minlash davlat budjetida ushbu sarflarning ham miqdoran ham ulushi nuqtai nazaridan doimo asosiy yo'nalish bo'lib qolishini anglatadi.

2-jadvalga ko'ra, mamlakatimizda davlat budjetidan ijtimoiy sarflar tarkibida ta'limga sarflar asosiy qismni tashkil etadi. Xususan, 2024-yilda jami ijtimoiy xarajatlarning taxminan 46 foizi ta'limning turli bo'g'inlariga yo'naltirilishi kutilmoqda. 2023-yilda esa ushbu ko'rsatkich taxminan 45 foizni tashkil etgan. 2024-yilda davlat budjetidan ta'limga qilinishi ko'zda tutilgan xarajatlarning 18 foizdan ortig'i kadrlar tayyorlash uchun sarflanishi belgilangan. Kadrlar tayyorlashga taaluqli bo'lgan sarflar professional ta'lim muassasalari, akademik litseylar va oliy ta'lim sohasiga qilingan sarflardan tashkil topgan bo'lib, 2024-yilda kadrlar tayyorlashga yo'naltiriladigan mablag'larning 48 foizga yaqini oliy ta'lim sohasiga ajratilishi mo'ljallangan. 2023-yilda esa mos ravishda ushbu ko'rsatkich 46 foiz atrofida bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Mamlakatimizda 2020-2024-yillar davomida davlat budjetidan oliy ta'limga sarflarning ulushi 2020-yildagi 1.37 foizdan 2024-yilda 1.93 foizni tashkil etishi kutilmoqda. Ushbu ko'rsatkich 2022-yilda 2.05 foizgacha oshgan bo'lsada, keying yillarda nisbatan pasayish tendensiyasiga egaligini ko'rishimiz mumkin (4-rasm).




**4-rasm. 2020-2024-yillarda O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limga davlat sarflarining davlat budjeti va YaIMdagi ulushi**

**Manba:** O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy saytlari ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Shuningdek, oliy ta'limga sarflarning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi ham 2020-yildagi 0.29 foizdan 2024-yilga kelib 0.46 foizgacha oshishi kutilayotganligini ko'rishimiz mumkin. Ushbu ko'rsatkich ham so'nggi yillarda nisbatan pasayish tendensiyasiga egaligining guvohi bo'lishimiz mumkin. Bunday pasayish asosan mamlakatimizda oliy ta'limni moliyalashtirishning bilvosita usullariga o'tilayotganligi bilan ham tushuntirilishi mumkin. Ya'ni mamlakatimizda talabalarga va ijtimoiy reestruga kiradigan aholi qatlamiga maqsadli moliyalashtirishni tashkil etish bo'yicha ko'rilayotgan choralar natijasida davlat budjetidan to'g'ridan-to'g'ri sarflar nisbatan kamayganligi kuzatilgan deyish mumkin.

2020-2024-yillar davomida mamlakatimizda davlat budjetidan oliy ta'limga xarajatlarning ta'limga jami sarflardagi ulushi 7-10 foiz atrofida bo'lganligini ko'rish mumkin (5-rasm). So'nggi yillarda ushbu nisbat ham nobarqaror tus olayotganligini ko'rish mumkin. Albatta, ushbu nisbat (10/90) ITHT mamlakatlarida bugungi kunda mavjud nisbatlardan

keskin farq qiladi. Ushbu nisbatlar rivojlangan mamlakatlarda 70/30 ko'rsatkichni tashkil etadi. Ya'ni rivojlangan mamlakatlarda davlat budjetining ta'limga sarflarining 70 foizi oliy ta'limga yo'naltiriladi. Bu quyi ta'lim bo'g'inida bir nafar o'quvchiga sarflarning pastligi (kam sarfligi), ushbu mamlakatlarda oliy ta'lim bilan qamrovning yuqoriligi hamda oliy ma'lumotli mutaxassis tayyorlashning kamida 4-5 baravar qimmatligi bilan izohlanadi (Birdsall,1996; Jahon banki, 2020). Shuningdek, hozirgi vaqtda mamlakatimizda oliy ta'limga davlat budjetidan sarflarning taxminan 1/3 qismi talabalarga stipendiyalar shaklida amalga oshiriladigan sarflar bo'lib (Byudjet loyiha, 2024), ushbu sarflar oliy ta'lim jarayoni sifatini va OTMLarning salohiyatini oshirishga nisbatan ta'sirchan sarflar hisoblanmaydi. 2025-yil uchun e'lon qilingan davlat budjeti loyihasida oliy ta'limga jami sarflar 6 683.6 mlrd. so'm bo'lishi rejalashtirilgan bo'lib, undan 2 014.5 mlrd. so'm qismi talabalarga stipendiyalar uchun ajratilishi mo'ljallangan.



**5-rasm. 2020-2024-yillarda O'zbekiston Respublikasida kadrlar tayyorlashga va oliy ta'limga xarajatlar dinamikasi**

**Manba:** O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy saytlari ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

2021-yildan so'ng O'zbekistonda oliy ta'lim sohasini moliyalashtirish borasida bir qancha islohotlar amalga oshirildi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-iyuldagi "Oliy va professional ta'lim tashkilotlarida ta'lim olish imkoniyatlarini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5203-son qarori asosida bir qancha islohotlar amalga oshirildi. Ushbu qaror asosida 2021/2022-o'quv yilidan boshlab to'lov-kontrakt asosida tahsil olish uchun ta'lim krediti ajratishning yangi tizimi yo'lga qo'yildi. Qarorga asosan quyidagilar belgilab berildi:

- tijorat banklari Moliya vazirligi tomonidan joylashtiriladigan resurslar hisobidan ta'lim kreditlarini Markaziy bankning asosiy stavkasida ajratishi;
- ta'lim kreditining asosiy qismi talabaning rasmiy o'qish muddati tugagandan so'ng ettinchi oydan boshlab 7 yil davomida qaytarilishi;
- ta'lim kreditini rasmiylashtirishda va uning qaytarilishida talabaning doimiy daromad manbaiga ega bo'lgan oila a'zolari va boshqa uchinchi shaxslar birgalikda qarz oluvchi sifatida qatnashishiga ruxsat etilishi;
- "Ijtimoiy himoya yagona reyestri"ga kirgan oilalar farzandlaridan ta'lim krediti uchun garov va kafilliklar talab etilmasligi.



Shuningdek, Ta'lim kreditlari bo'yicha tijorat banklarini moliyaviy resurslar bilan ta'minlash uchun Moliya vazirligi huzurida Ta'lim kreditini moliyalashtirish jamg'armasi tashkil etildi. Jamg'armaga Davlat budjetidan 2021-yilda kamida 1 trillion so'm, keyingi yillarda haqiqiy talabdan kelib chiqib mablag'lar ajratilishi belgilandi.


## 3-jadval

## 2022-2025-yillarda Ta'lim kreditini moliyalashtirish jamg'armasi asosiy ko'rsatkichlari to'g'risida ma'lumot (mlrd. so'mda)

Ko'rsatkichlar	2022	2023	2024 (kutilma)	2025 (reja)
Daromadlar	1 037	162	246	500
Transfertlar	1 000	1 947	2 991	2 800
Xarajatlar	11	150	350	550
Yil yakunida depozit qoldig'i	2 026	3 288	6 173	8 923
Talabalarga ajratilgan mablag'lar	1 714	1 915	-	-
Mablag' ajratilgan talabalar soni	174 677	170 100	-	-

**Manba:** O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi rasmiy sayti ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

2022 va 2023-moliya yillari davomida mos ravishda 174 677 ta va 170 100 ta talabalarga ushbu jamg'arma orqali 3.6 trln. so'mdan ortiq mablag'lar ajratilgan. Ushbu davr mobaynida jami 161 mlrd. so'm mablag'lar foizlarni subsidiyalash uchun yo'naltirilgan bo'lib, 2024-2025-yillar davomida ushbu maqsadlarda 900 mlrd. so'mga yaqin mablag'lar sarflanishi kutilmoqda (3-jadval).



## 6-rasm. O'zbekistonda 2017-2024-yillarda davlat oliy ta'lim muassasalarida tushumlar tarkibi o'zgarishi (foizda)

**Manba:** O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy saytlari ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

3-jadval asosida xulosa qilish mumkinki, so'nggi yillarda ushbu yo'nalishda davlat budjetidan ajratilgan mablag'lar hajmi keskin oshib borayotganligi kuztilmoqda. Demak, oliy ta'limni talabalar orqali subsidiyalash mexanizmlari ham davlat moliyasida sezilarli ta'sirga ega yo'nalish sifatida shakllanib borayotganligining guvohi bo'lishimiz mumkin.

2024/2025-o'quv yilidan boshlab ta'lim kreditlari ajratish tartiblari takomillashtirilishi natijasida quyidagi tartiblar belgilandi:

a) oliy ta'lim tashkilotlarining birinchi bosqich talabalari hamda professional ta'lim tashkilotlari o'quvchilari uchun to'lov-kontrakt summasi miqdorida ajratilishi;

b) oliy ta'lim tashkilotlarining ikkinchi va undan yuqori bosqich talabalari uchun fanlarni o'zlashtirishning o'rtacha ko'rsatkichi (grade point average):

"3" dan past bo'lgan taqdirda, to'lov-kontrakt summasining ko'pi bilan 80 foizi miqdorida ajratilishi, bunda kredit to'lov-kontrakt summasining dastlabki 20 foizi talaba tomonidan to'langandan keyin ajratilishi;

"3" va undan yuqori bo'lgan taqdirda va (yoki) "Ijtimoiy himoya yagona reyestri"ga kiritilgan oilalarning ta'lim olayotgan a'zolari uchun ta'lim krediti to'lov-kontrakt summasi miqdorida ajratilishi.

Hozirda ta'lim krediti jami talabalar sonining 20 foizini qamrab olayotganligi va 2025-yilda Jamg'armadan 550 mlrd. so'mdan ortiq xarajatlar qilinishi ko'zda tutilayotganligini hisobga olsak, davlatning talabalar orqali oliy ta'limni subsidiyalash hajmlari ham sezilarli darajada shakllanib borayotganligini xulosa qilish mumkin.

2017-2024-yillar uchun davlat OTMLar tushumlari tarkibi dinamikasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, 2021-yildan so'ng davlat budjetidan tushumlar ulushi nisbatan oshganligini ko'rish mumkin (6-rasm).

Kelajakda to'lov-kontrakt tushumlarida ham ta'lim kreditlari miqdorlarining oshib borishi natijasida davlat budjetidan ushbu kreditlar foizlarini subsidiyalashga sarflarning oshib borishi kutilishi mumkin. Shuningdek, Moliya vazirligi huzurida Ta'lim kreditini moliyalashtirish jamg'armasi hisobidan oliy ta'lim tashkilotlarida to'lov-kontrakt asosida o'qish uchun ta'lim kreditlarini ajratish to'g'risidagi nizomga asosan respublikadagi davlat oliy ta'lim muassasalari, xususiy va xorijiy oliy ta'lim tashkilotlari hamda ularning filiallari talabalariga kontrakt to'lovlari uchun kredit ajratish nazarda tutilgan. Shunga ko'ra ushbu ta'lim kreditlari foizlarini subsidiyalash davlat budjeti sarflarida oshib borishini anglatadi.

### **Xulosa va takliflar.**

O'zbekistonda so'ngi yillarda oliy ta'limning ommaviy qamrov davriga o'tishi davlat moliyasida oliy ta'lim sohasini subsidiyalash tartiblarida bir qancha jihatlarni namoyon qildi. Jumladan, davlat budjeti mablag'larining manzilli, adolatli, mutanosib va samarali ishlatilishini ta'minlash maqsadida OTMLarni bevosita hamda bilvosita moliyalashtirish mexanizmlari joriy etilmoqda. Ushbu islohotlarni hisobga olgan holda ayrim xulosalar qilinishi mumkin:

*Birinchi*dan, davlat OTMLariga moliyaviy mustaqillik berish orqali ularning o'zini-o'zi moliyalashtirish imkoniyatlarini oshirishga qaratilgan islohotlar joriy etilmoqda. Shuningdek, ushbu jarayonda moliyaviy qarorlar qabul qilishda korporativ boshqaruv usullaridan foydalanishga urg'u berilmoqda.

*Ikkinchi*dan, davlat OTMLari, xorijiy OTM filiallari, nodavlat OTT va davlat boshqaruv organlari o'rtasida davlat maqsadli kadrlar tayyorlash borasida davlat buyurtmasi institutidan foydalanish tartiblari izchillik bilan joriy etilmoqda.

*Uchinchi*dan, oliy ta'lim olish istagidagi shaxslarga tanlov va ijtimoiy mezonlarga asosan moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish orqali talabalar orqali OTMLarni subsidiyalash mexanizmlarini ham takomillashtirish siyosati olib borilmoqda.

*To'rtinchi*dan, oliy ta'limni subsidiyalashda ta'lim kreditlari jamg'armasi orqali talabalarining ijtimoiy maqomi, akademik o'zlashtirishi kabi omillarni hisobga olgan holda tartiblarni kiritish orqali moliyalashtirish borasida ham bir qancha islohotlar amalga oshirilmoqda.

Fikrimizcha, O'zbekistonda oxirgi yillarda oliy ta'lim tizimini subsidiyalash tartiblari borasidagi olib borilayotgan islohotlar, jahon tajribasi va mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasidan kelib chiqqan holda tadqiqotlar va ularni amaliyotga joriy qilish borasidagi ayrim yo'nalishlarda e'tibor berilishi talab etiladigan jihatlar mavjuddir. Odatda jahon tajribasida oliy ta'lim xizmatlarining iqtisodiy mohiyati va ijtimoiy ahamiyati nuqtai

nazaridan bir qancha omillarni hisobga olgan holda tashkil etish nazarda tutiladi. Ya'ni davlatning oliy ta'limni subsidiyalash borasidagi moliyaviy siyosati ushbu omillar asosida shakllantiriladi. Bunday omillarga oliy ta'limdan iqtisodiy va ijtimoiy qaytim (sarflar va nafliklarni baholash asosida), oliy ta'limdan yuzaga keluvchi ijobiy ta'sirlar (externalities), oliy ta'limni moliyalashtirishda kapital bozorlari faoliyatining holati, oliy ta'limni kuchli va kuchsiz signallar (strong and weak signalling) asosida baholash amaliyoti hamda oliy ta'limdan yuzaga keluvchi subyektiv qarorlarning holatiga bog'langan empirik tahlillarni keltirish mumkin.

Bundan tashqari, bugungi soliq to'lovchilarning mablag'larini oliy ta'limni subsidiyalashga yo'naltirishdan kelajakda yuzaga keluvchi fiskal samaralar (fiscal externalities) qanday kutilishi mumkin degan savolga ham javob topish talab etiladi. Muxtasar qilib aytganda, oliy ta'limni subsidiyalash orqali hozirda qilingan investitsiyalar kelajakda xususiy daromadlarning oshishi orqali budjetga soliq tushumlarini oshirishi kerak. Aynan shunda adolat va mutanosiblik hamda samaradorlik nuqtai nazaridan maqsadga muvofiq subsidiyalash tashkil etilgan deb baholanishi mumkin bo'ladi. Oliy ta'lim muassasalarini bevosita yoxud bilvosita subsidiyalanishi borasidagi tadqiqotlar va empirik xulosalar ushbu omillarga tayangan holda amalga oshirilishi davlat moliyasining oliy ta'limga nisbatan samarasini yaxshilashi mumkin.

#### **Adabiyotlar /Lumepamypa/Reference:**

Edu.uz. (2023). *O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi*. [online] Available at: <http://www.edu.uz>.

mf.uz (2023). *Iqtisodiyot va moliya vazirligi*. [online] undefined. Available at: <http://www.mf.uz>.

Tilak J. B. G. (2004) *Public subsidies in education in India //Economic and Political Weekly*. C. 343-359.

Tilak J. B. G. (2008) *Higher education: A public good or a commodity for trade? Commitment to higher education or commitment of higher education to trade //Prospects*. – T. 38. – C. 449-466.

Winter S., Pfitzner A. (2013) *Externalities and subsidization of higher education*.

World Bank. (n.d.). *World Bank Group - International Development, Poverty, & Sustainability*. [online] Available at: <http://www.worldbank.org>.

Бюджет (2024) *Фуқаролар учун бюджет 2025 лойиҳа*.

Татарникова А. А. (2006) *Механизм введения целевых образовательных субсидий в рамках бюджетного финансирования государственных вузов //Вестник Томского государственного педагогического университета*. – №. 12. – С. 48-52.